

MUSIQA TA'LIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK STRATEGIYALAR: NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Xakimjonova Go'zal Abdunabi qizi

O'ZMPU Professional ta'lim va san'at fakulteti

Musiqa ta'limi yo'nalishi

[*gozalxakimjonova@gmail.com*](mailto:gozalxakimjonova@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy musiqa ta'limida innovatsion pedagogik strategiyalarning ahamiyati, ularning nazariya va amaliyot integratsiyasidagi o'zni tahlil qilinadi. Musiqa darslarida interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda STEAM-ta'lim elementlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada xalqaro tajribalar hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan musiqa ta'limining samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan musiqa darslari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning fanlararo integratsion fikrlashini rivojlantirish va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa ta'limi, pedagogik strategiyalar, STEAM-ta'lim, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar, musiqiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, nazariya va amaliyot integratsiyasi, musiqa pedagogikasi.

INNOVATIVE PEDAGOGICAL STRATEGIES IN MUSIC EDUCATION: INTEGRATION OF THEORY AND PRACTICE

UZMPU Faculty of Professional Education and Arts Department of Music
Education Khakimjonova Go'zal Abdunabi qizi

Annotation: This article analyzes the importance of innovative pedagogical strategies in modern music education, their role in the integration of theory and practice. The pedagogical possibilities of using interactive methods, a competency-based approach, information and communication technologies and STEAM-education elements in music lessons are highlighted. The article scientifically and theoretically substantiates the effectiveness of music education organized on the basis of international experience and modern digital technologies. The results of the study reveal that music lessons organized on the basis of innovative approaches serve to improve the quality of education, develop interdisciplinary integrative thinking of students, and support their creative activities.

Keywords: Music education, pedagogical strategies, STEAM education, interactive methods, competency-based approach, digital technologies, musical thinking, creative abilities, integration of theory and practice, music pedagogy,

"ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ИНТЕГРАЦИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ"

Факультет профессионального образования и искусства

УзГПУ Направление музыкального образования

Хакимова Гузал Абдунаби кизи

Аннотация: В данной статье анализируется значение инновационных педагогических стратегий в современном музыкальном образовании, а также их роль в интеграции теории и практики. Освещены педагогические возможности использования интерактивных методов, компетентностного подхода, информационно-коммуникационных технологий и элементов STEAM-образования на уроках музыки. В статье научно и теоретически обоснована эффективность музыкального образования, организованного на основе международного опыта и современных цифровых технологий. Результаты исследования служат повышению качества образования на уроках музыки, организованных на основе инновационных подходов, развитию междисциплинарного интеграционного мышления учащихся и поддержке их творческой деятельности.

Ключевые слова: Музыкальное образование, педагогические стратегии, STEAM-образование, интерактивные методы, компетентностный подход, цифровые технологии, музыкальное мышление, творческие способности, интеграция теории и практики, музыкальная педагогика.

Bugungi axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, musiqa ta'limida zamonaviy pedagogik strategiyalarni qo'llash o'quvchilarning nafaqat musiqiy bilimlarini, balki ularning estetik tafakkuri, ijodiy qobiliyati, diqqati, nutqi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqa inson ruhiyatiga, ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan san'at turi sifatida yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Bolalarga yoshligidan musiqa orqali tarbiya berish uni rivojlanishiga imkon beradi. Shu sababli musiqa darslarini an'anaviy usullardan innovatsion metodlarga asoslangan holda tashkil etish davr talabi hisoblanadi. Interfaol metodlar, multimedia vositalari, raqamli platformalar hamda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi strategiyalar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

Innovatsion pedagogik strategiyalar — bu ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi zamonaviy metod va texnologiyalar majmuidir. Musiqa ta'limida bunday strategiyalar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, musiqiy idrokini shakllantirish hamda estetik dunyoqarashini boyitishga qaratiladi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab hollarda ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar ustunlik qilmoqda, bu esa o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini to'liq ta'minlay olmaydi. Ushbu holat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida didaktik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida pedagogik strategiyalarning samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonini rejalashtirish, o'qitish usullarini tanlash, o'quv faoliyatini tashkil etish va natijalarni baholashga doir didaktik malakalari kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy musiqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bular jumlasiga musiqiy o'yinlar, rolli o'yinlar, musiqiy viktorinalar, ijodiy mashqlar, improvizatsiya mashg'ulotlari kiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'quv jarayonini qiziqarli hamda samarali qiladi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi musiqa ta'limida ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Turli musiqiy dasturlar, elektron darsliklar, musiqiy notalar redaktorlari, audio va video materiallar, virtual musiqa asboblari musiqa ta'limini yanada samarali va zamonaviy qilmoqda. Masalan, musiqiy kompozitsiya yaratish dasturlari o'quvchilarga o'z ijodlarini yaratish va qayd etish imkonini bersa, musiqiy notalar redaktorlari nota yozuvini o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Zamonaviy musiqa pedagogikasida kompetensiyaviy yondashuv muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv o'quvchilarda nafaqat musiqiy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni, ijodiy fikrlash qobiliyatini va musiqiy asarlarni tahlil qilish malakasini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Musiqa ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Muammoli ta'lim texnologiyasi -o'quvchilar oldiga muammoli vaziyatlarni qo'yish orqali ularning mustaqil fikrlash va ijodiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. Loyiha texnologiyasi -o'quvchilar tomonidan musiqiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
3. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi -guruh bo'lib ishlash, musiqiy ansambllar tuzish va birgalikda ijod qilish orqali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.
4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari-zamonaviy raqamli vositalar, multimediya resurslar va internet platformalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish.

Xalqaro tajribaga ko'ra, Skandinaviya mamlakatlari, Janubiy Koreya, Singapur va Finlyandiya kabi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida innovatsion metodlardan keng foydalaniladi. Ayniqsa, STEAM-ta'lim, gamifikatsiya, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini interaktiv tashkil etish keng qo'llanmoqda. Fanlararo ta'lim konsepsiyasi sifatida STEAM ta'limi talabalarning innovatsion fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini keng qamrovli qo'llashga urg'u beradi. Mahalliy tadqiqotchilar ham ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha so'nggi yillarda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular pedagogik innovatsiyalarnisamarali tatbiq etish masalalarini o'rganishga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida STEAM-ta'lim yondashuvi musiqa fanini o'qitishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Musiqa nafaqat san'at, balki unda texnologiya, matematika, fizika va ijodiy tafakkur ham mujassam bo'lgan. STEAM yondashuvi orqali o'quvchilar musiqa darslarida nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy faoliyatni ham olib boradilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkuri, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqa ta'limida STEAM texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, ritm va tempni o'rganishda matematik hisoblash elementlaridan foydalaniladi.

Telonius Monk institutining Xalqaro jazz dasturi direktori Mika Shino musiqadan matematika va fan bilan muvaffaqiyatli foydalanish mumkinligini ta'kidladi. Shu maqsadda, 2016-yilda Herbie Hancock Can instituti o'qituvchilarga STEM ko'nikmalari va idrokklarini yaxshilash uchun musiqaga asoslangan ta'lim dasturlariga kirish imkonini beruvchi veb-sayt ilovasini ishga tushirdi. Dastur talabalarning fan, texnologiya, muhandislik, matematika va musiqa sohalarida ko'nikmalarga ega bo'lish, bilim olish va ijodiy fikrlashni o'rganishga bo'lgan ortib borayotgan ehtiyojini qondiradi. Tadqiqotlarni o'rganganimizda, maktab o'quvchilaridan, talabalargacha STEAM yondashuvlar ijodiy ta'sir qilgan. STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan musiqa ta'limi o'quvchilarning kreativ tafakkuri, texnologik savodxonligi hamda fanlararo integratsion fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli platformalar va interaktiv texnologiyalar asosida olib borilgan mashg'ulotlar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy raqamli dasturlar yordamida kuy yaratish, audio yozuvlar bilan ishlash yoki virtual musiqa asboblardan foydalanish texnologik ko'nikmalarni shakllantiradi. Professional musiqachi tarbiyalash emas, STEAM yondashuv orqali kuyni his qilishni o'rgatish asosiy maqsad bo'lishi lozim. Musiqani anglagan, his qilgan o'quvchida estetik did rivojlanadi, diqqatni jamlashni o'rganadi. STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan musiqa darslari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi,

jamoalar bilan ishlashi hamda ijodiy izlanish olib borishiga yordam beradi. Ayniqsa, turli loyihalar, sahna chiqishlari, musiqiy kompozitsiyalar yaratish jarayonida o'quvchi o'z bilimini amaliyot bilan uyg'unlashtiradi. Bu esa nazariya va amaliyot integratsiyasining samarali ko'rinishi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali oddiy dars jarayoni o'quvchi uchun qiziqarli, erkin va ijodiy muhitga aylanadi. Musiqa ta'limi faqatgina qo'chimcha yondashuv emas, asosiy rivojlanish soha sifatida ko'rish lozim. Bugungi raqamli davrda multimedia vositalari, virtual musiqa dasturlari va loyiha asosidagi ta'lim metodlari o'quvchilarning texnologik savodxonligini ham oshirib, fanlararo integratsiyani kuchaytiradi. Shu jihatdan qaraganda, musiqa ta'limini zamonaviy pedagogik strategiyalar asosida tashkil etish kelajak avlodning ma'naviy-estetik dunyoqarashi va kreativ tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan musiqa ta'limi o'quvchilarda musiqaga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. Musiqani his qilgan, anglagan va ijodiy yondasha olgan o'quvchi hayotdagi omillarni teranroq tushunadi, o'z fikrini erkin ifoda etishga intiladi hamda yangilik yaratishga moyil bo'ladi. Demak, innovatsion pedagogik strategiyalar asosidagi musiqa ta'limi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi samarali pedagogik tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova Laylo Baxtiyor qizi. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning samaradorligi" maqolasi // "Development of Science" jurnali. – Fevral, 2026.
2. Tursunqulov Shoximardon, Avezova Rohila Ruzimboyevna. "Ta'limda innovatsion metodlar va ularning ahamiyati" maqolasi // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi.
3. Zeynep Özer, Rasim Erol Demirbatır. "Examination of STEAM-based Digital Learning Applications in Music Education" // European Journal of STEM Education. – 2023.
4. Tingting Zhuang, Xiaohua Wang, Dongyun Chang. "Teaching Activity Design and Psychological Practice of Music Majors under a Convolutional Neural Network and Transformer Module". – 22 mart, 2026.
5. Farrux Abduraufovich Jalilov. "Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, innovatsion g'oyalardan foydalanishning nazariy asoslari" maqolasi // "Science and Education" Scientific Journal. – Aprel, 2025